



UDK:811.111

Soyibjon TOSHTONOV,
Ingliz tili o'qitishning integrallashgan kursi kafedrasida o'qituvchisi

ADU professori SH.X.Shaxobidinova taqrizi asosida

FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR VA ULARNING TIL SISTEMASIDAGI O'RNI

Annotatsiya

Inson va olam munosabati gnoseologiyaning bosh mavzusi sanaladi. Inson o'zini qurshab turgan olam bilan birga o'zini ham bilishga intiladi. U o'zini qurshab turgan olamni fragmentar o'rganadi va ongida in'ikos etadi. Sezgi organlari tashqi olam haqida muayyan axborotlarni miyaga uzatadi. Miya bu axborotlarni umumlashtiradi va qayta ishlaydi. Inson moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning umumiy va xususiy belgilarini ajratgan holda ongda aks ettirish imkoniyatiga ega. Bu jarayon psixologiyada intellektual akt deb atalib, u uch fazadan iborat ekanligi e'tirof etiladi: faoliyatni rejalashtirish, uni amalga oshirish va qo'lga kiritilgan natijani ko'zlangan maqsad bilan solishtirib ko'rish[1].

Kalit so'zlar: Kognitiv faoliyat, lisoniy struktura, modellar yig'indisi, kognitiv tilshunoslik, kommunikativ tizimlar, semiotika, muloqot mohiyati.

PHRASEOLOGICAL UNITS AND THEIR PLACE IN THE LANGUAGE SYSTEM

Annotation

The relationship between man and the world is considered the main topic of epistemology. A person seeks to know himself as well as the world around him. He studies the world around him fragmentarily and perceives it in his mind. Sensory organs transmit certain information about the external world to the brain. The brain summarizes and processes this information. A person has the ability to reflect in the mind, distinguishing general and specific signs of things and events in the material world. This process is called an intellectual act in psychology, and it is recognized that it consists of three phases: planning an activity, implementing it, and comparing the achieved result with the intended goal.

Key words: Cognitive activity, linguistic structure, set of models, cognitive linguistics, communicative systems, semiotics, essence of communication.

ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ И ИХ МЕСТО В ЯЗЫКОВОЙ СИСТЕМЕ

Аннотация

Отношения человека и мира считаются основной темой гносеологии. Человек стремится познать себя, а также окружающий мир. Он изучает окружающий мир фрагментарно и воспринимает его мысленно. Органы чувств передают в мозг определенную информацию о внешнем мире. Мозг суммирует и обрабатывает эту информацию. Человек обладает способностью размышлять в уме, различая общие и частные признаки вещей и событий материального мира. Этот процесс в психологии называется интеллектуальным актом и признается, что он состоит из трех фаз: планирования деятельности, ее осуществления и сравнения достигнутого результата с намеченной целью.

Ключевые слова: Познавательная деятельность, языковая структура, совокупность моделей, когнитивная лингвистика, коммуникативные системы, семиотика, сущность общения.

Kirish. Insonning kognitiv faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ushbu jarayonlarning barchasi oxir-oqibat tilda tajalli topgani sababli ularni tadqiq etish tilshunoslikning ham tadqiq muammolaridan biriga aylandi. Chunki "Til – bu fikr uzatishning lisoniy strukturaga "qadoqlangan" vositasidir. Bunda qo'llaniladigan bilim faqat til haqidagi bilim emas. Bu olam, ijtimoiy voqelik, nutqiy muloqot tamoyillari, adresat va h.k. haqidagi bilimlar hamdir. Bu bilimlarning hech birini boshqasidan ustun deb bo'lmaydi. Ularning barchasi hamkorlikda bizni lisoniy muloqotning mohiyatini tushunishga yaqinlashtiradi".

So'nggi yillarda til hodisalariga "inson – borliq – til" munosabati asosida yondashuv natijasida yuzaga kelgan yangi tadqiq paradigmasi – antropotsentrik paradigma nuqtai nazaridan til quruq faktlar, modellar yig'indisi emas, balki shu tili tashuvchilarining mental faoliyati, dunyoqarashi, milliy-madaniy mansubligi, e'tiqodi, qadriyatlarini haqida ma'lumot beruvchi o'ziga xos zahiradir. Chunki "har bir millatning o'ziga xos ko'rish tarzi bor, o'ziga xos idrok intizomi bor, umumlashtirib aytganda, o'ziga xos tafakkur tamoyili bor. ...til, eng avvalo, dunyoni ko'rish, eshitish, bilish, idrok etish vositasidir" [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kognitiv tilshunoslik masalalari bilan shug'ullanib kelayotgan tilshunos olimi V.A.Maslovaning ta'kidlashicha, "insoniy tajriba kategorizatsiyasi inson kognitiv faoliyati bilan bog'liqdir, chunki insonning bilish faoliyati davomida olingan va qayta ishlangan mahsulotga aylangan mazmuniy ma'lumotlar lisoniy shakllar orqali o'z ifodasini topadi". Tilshunos F.Usmonov ham

L.Vaysgerberning "tilda u yoki bu lisoniy belgi, ya'ni tovush ifodasi bo'lmasa, unga mos keladigan tushuncha ham bo'lmaydi, turli tilda gaplashuvchi insonlar turli olamlarda yashaydilar", - degan fikrlariga tayangan holda, "muayyan tilda gaplashuvchi kishilarning o'zini qurshab turgan olamni bilishi to'g'ridan-to'g'ri tilga bog'liq" ekanligini e'tirof etadi[3].

Tilshunoslikda frazeologiya sohasining rivoj topishida rus tilshunoslarining mehnatlari beqiyos. Ular frazeologizmlarni turli aspektlarda tadqiq etib, frazeologiyaning tilshunoslikning alohida sohasi sifatida shakllanib, rivoj topishiga hissa qo'shdilar[4].

Taniqli o'zbek frazeolog-tilshunosi B.Yo'ldoshev frazeologiyaning taraqqiyot bosqichlarini quyidagicha davrlashtiradi:

XVIII asrning o'rtalaridan XX asrning 30-yillarigacha bo'lgan davr. Bu davrda frazeologik tadqiqotlarning yo'lga qo'yilishi M.V.Lomonosov, A.Potebnya, Sh.Ball faoliyati bilan bog'liq. Bu davrda frazeologiya ko'proq leksikografiya, amaliy lug'atshunoslik obyekti bo'lgan.

Frazeologiyaning mustaqil lingvistik soha sifatida shakllanish davri. XX asrning 30-50-yillarini o'z ichiga oladi.

XX asrning 60-yillaridan boshlanib, hozirgi kunlargacha davom etadi. Bu davr frazeologik tadqiqotlarda yangi metodlarning qo'llanishi, frazeologik nazariyalarning tez sur'atlar bilan rivojlanishi va ko'plab frazeolog olimlarning yetishib chiqqanligi bilan xarakterlanadi.

Ilmий ishning maqsadi: Demak, inson ongida in'ikos etilgan borliq, uning fragmentlari va, umuman, olam haqidagi

tasavvurlar til orqali voqelanadi, tilda tajalli topadi. Chunki til boshqa kommunikativ tizimlar ichida semiotik jihatdan eng mukammali bo'lib, u olam haqidagi bilimlarni, axborotni uzatish va qabul qilish bilangina chegaralanib qolmaydi, balki olingan axborotni qayta ishlash va ularni tartiblash barobarida muayyan lisoniy jamoa xotirasida olam lisoniy manzarasini shakllantiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Til materialining tadqiqi jarayonida tavsifiy, distributiv, transformatsion va o'zni bilan applikativ usullardan foydalanildi. Maqola mavzusini yoritishda qiyosiy tahlil, zidlash, tasniflash, kontekstual, distributiv, struktural va semantik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Olam manzarasini lisoniy shakllar orqali voqelantirish masalasi qadimdan boshlab tilshunoslar e'tiborini tortib kelgan. Buning uchun qadimgi yunon tilshunosligidagi analogistlar bilan anomalistlar o'rtasidagi munozaralarni eslash kifoya. Ta'kidlash lozimki, olam manzarasini voqelantirishda metaforalar alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki metafora "favqulodda amaliydir... undan tavsif va izoh quroli sifatida barcha sohalarida foydalanish mumkin, xususan, psixoterapevtik suhbatlarda, avialiniya uchuvchilari bilan muloqotda, marosim raqslari-yu, dasturlash tilda, badiiy tarbiya va kvant mexanikasida. Metafora, qaerda uchratishimizdan qat'i nazar, insonlarning harakatlari, bilimlari va tilini tushunishni oydinlashtiradi". Metaforik obraz tildagi semantik jarayonlar asosini tashkil etadi. U insonning ichki kechinmalarini, ruhiy holatini namoyon etgan holda, atrof olam haqidagi bilimlarni umumlashgan obrazli, nafis tasavvurlar asosida mazmunga jamlaydi. Chunki metafora ma'lumotlarni kodlashtirishga va ixchamlashtirishga qaratilgan o'ziga xos kognitiv mexanizmdir. Yu.Stepanov ta'kidlaganidek, metafora vositasida so'zlovchi tor doiradan (shakldan) keng olamni (mazmunni) ajratib oladi.

Metaforik obraz asosida olam haqida tasavvur hosil qilishning betakror vositalaridan biri – bu frazeologizmlardir. Chunki "tildagi birliklarda, ayniqsa, obrazli so'z, ibora-ifodalarda xalqning mental o'ziga xosligi muayyan tarzda in'ikosini topadi. Zotan bunday obrazli ifodalar xalqning teran dunyoqarashi, obrazli nigohi, idroki va tafakkuri mahsuli o'laroq dunyoga kelgan". Shu bilan bir qatorda, "u yoki bu tilning frazeologik birliklari insoniy munosabatlarning ko'z ilg'amas rang-barangligini aks ettiradi. Bu yerda ..insonning barcha salbiy va ijobiy xususiyatlari mavjud. Bu yerda o'xshashlik va farq, boshlanish va tugash, ko'plik va ozlik, birlik-kelishmovchilik va kurash; tug'ilish, qarindoshlik, yosh, o'lim; baholash, muvaffaqiyat-muvaffaqiyatsizlik, haqiqat va yolg'on, tartib va tartibsizlik, farovonlik va kambag'allik, xatolar va jazo va shunga o'xshash boshqa juda ko'p tushunchalarning tavsif va tasvirlari mavjud. Ko'rib turibmizki, oldimizda olamning yaxlit frazeologik manzarasi ochiladi". "Iboralashishning dastlabki bosqichi muayyan leksik komponentning boshlang'ich ma'no intensionalining transformatsiyasi hamda implikatsionalining aktuallashishi bilan xarakterlanadi, ya'ni metaforaning yordamchi sub'ekti bilan bog'liq turg'un assotsiatsiyalarni aks ettiruvchi belgilar frazeologik birliklarni hosil qiladi.

Keyinchalik Sh.Ballingning fikri o'zgaradi. U o'zining "Fransuz stilistikasi" asarida faqat ikki qutbiy birikmani – erkin birikmalar bilan frazeologik birlashmalarni farqlaydi. Avvalgi tadqiqotlarida qayd etilgan odatiy birikmalar bilan frazeologik qatorlarni esa ikki qutb o'rtasidagi oraliq tiplar sifatida ajratadi. Olimning ta'kidlashicha, "ayrim so'zlar boshqalarga qaraganda zichroq birlashish tendensiyasiga ega bo'ladi. Negaki, ularning birikishining o'ziyoq e'tiborimizni tortadi yoki shu birikma orqali ifodalangan fikr bizda alohida kuchli taassurot uyg'otadi. Har ikki holatda ham fikr fakti bilan nutq fakti o'rtasidagi munosabat xotirada qat'iy o'rinishadi va nutqda voqelantiriladi; birikmalar birikishning oliy darajasiga yetgandagina tilda ajralmas yaxlitlik sifatida o'rinishadi".

Aslida, Sh.Ballingning frazeologizmlar haqida bunday qarashlari F.de Sossyurning sintagma va uning belgilari xususidagi fikrlarining nazariy rivojlantirilishi natijasidir. F.de Sossyur o'zining "Umumiy lingvistika kursi" asarida: "biz tilga xos bo'lgan katta miqdordagi ifodalarga duch kelamiz: bu shunday ifodalarki, odatga ko'ra ular tarkibidagi biror bir so'zning almashtirilib qo'llanilishi mumkin emas. Bu ifodalarning uzallik xarakteri ularning ma'no xususiyatidan yoki sintaktik xususiyatidan kelib chiqadi. Bunday iboralarni improvizatsiya qilib bo'lmaydi, ular an'anaga ko'ra tayyor holatda yetkaziladi. ...Muayyan qoidalar asosida shakllantirilgan barcha sintagmalar tipi nutqqa emas, tilga xosdir. Tilda abstrakt bo'lgan hech narsa mavjud emasligi bois ushbu tiplarning ham tilda o'rinishishi til tizimida bunday namunalarning yetarli darajadagi zahirasi mavjudligidandir", -degan fikrlari orqali, garchi frazeologizm atamasini qo'llamagan bo'lsa-da, maxsus bog'lanish xususiyati bilan tildagi boshqa sintagmatik birliklardan farqlanib turuvchi ifodalar (frazemalar – S.T.) mavjudligini e'tirof etgan edi.

Shu bilan birga, frazeologiya sohasida olib borilgan tadqiqotlarni ularning tadqiq predmetiga ko'ra ham tasniflash mumkin: 1) frazeologiya nazariyasini shakllantiruvchi tadqiqotlar; 2) frazeologiyaga antropotsentrik yondashuv; 3) frazeografiya masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar.

O'zbek tilining frazeologik birliklarini struktur tadqiq etish jarayonida Sh.G'aniyeva frazeologizmlarni ham modellashtirishga harakat qiladi. Bu jarayonda frazeologizmlarning relevant va irrelevant belgilari ajratiladi. Frazeologik modellarni hosil qilishda ham boshqa lisoniy modellardagi kabi relevant belgilarga asoslanish lozimligi ta'kidlanadi. Natijada frazeologik birliklar til tizimidagi boshqa birliklar, xususan, leksema hamda turg'un birliklar bilan qiyoslangan holda, ularning o'zaro integral va differensial belgilari ajratiladi.

Tahlil va natijalar. Ikkinchi tomondan, frazeologizmlar "tarkibidagi mustaqil so'zlar o'z leksik ma'nosini saqlagan va har bir so'zlovchi tomonidan nutq jarayonida muayyan bir tilning sintaktik qoliplari asosida yangitdan yaratilgan birliklar – erkin birikmalarga nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi birikma, ya'ni turg'un birikma sifatida zidlanadi. Bundan tashqari erkin birikma tarkibidagi komponentlarning birikish kuchi beqaror, turg'un birliklarning birikish kuchi esa barqarordir. "Barqarorlik belgisi tarkibiy qismlarining doimiylikiga ishora qiladi"[7]. Demak, erkin va turg'un birikmalar komponentlarining birikish kuchiga ko'ra, ya'ni beqarorlik va barqarorlik belgisiga ko'ra ham ziddiyatli munosabatda turishi va shu asosda farqlanishga ega bo'lishi mumkin.

Frazeologik birliklar semantik strukturasiiga ko'ra tilning lug'aviy birliklari, ya'ni leksemalar bilan umumiylikni tashkil qiladi. Chunki frazeologizmlar tarkibidagi komponentlar ma'no yaxlitligiga ega bo'lib, lug'aviy ma'noga teng keladi va til sistemasida tayyor holatda o'rinishadi. Sh.G'anievaning ta'kidlashicha, "har qanday yangi o'rganilayotgan obyekt bilan ilgari o'rganilgan va keng ilmiy jamoatchilikka ma'lum bo'lgan obyektning ichki tuzilishi o'rtasida izomorflikni aniqlash va ana shu izomorflik asosida noma'lum obyektning tabiatini yoritish katta ahamiyatga ega". Shu jihatdan olib qaralganda, frazeologik ma'no va uning strukturasiiga leksik ma'no strukturasiiga qiyoslab o'rganish frazeologizmlarning mohiyatini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar. Keltirilgan fikrlarning barchasi frazeologik birliklarning til sistemasida o'ziga munosib o'ringa ega ekanligidan dalolat beradi. Ular umumiy holatda lug'aviy sistemaga mansub bo'lishiga qaramay, "tayyorlik", "barqarorlik", "obrazlilik", "semantik traspozitivlik", "informativ tugallik" kabi belgilari bilan tilning boshqa nominativ birliklaridan farqlanib turadi.

ADABIYOTLAR

1. Усмонов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи. Филол.ф.ан.докт. (PhD)...дисс. –Тошкент, 2020. –Б. 16.
2. Балли Ш. Стилистика французского языка. – М.: УРСС, 2001. – Б. 89-90. (392).
3. Ганиева Ш. Ўзбек тили фразеологизмларининг структур тадқиқи. –Тошкент: Фан, 2013. – Б. 33.
4. Искандарова Ш. Тил системасига майдон асосида ёндашув. – Тошкент: 2007. – Б.12.

5. Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографиясининг шаклланиши ҳамда таракқиёти. –Самарқанд, 2007. – Б. 4
6. Қаранг: Теория метафоры: Сборник. –М.: Прогресс, 1990. – С. 6. (512).
7. Маматов А. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. –Тошкент: Фан, 1991.
8. Маматов А. Э. Замонавий лингвистика. –Тошкент: Ношир, 2019. –Б.135.
9. Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. –Минск: ТетраСистемс, 2004. –С. 9.